

201
A
Alisher Navoiy
nomidagi
O'zbekiston MK

Tong yulduzi

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N:43 (67208)
2018-yil 22-oktabr

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

Ravshan ISOQOV

«TONG YULDUZI»

Ziyo sochar «Tong yulduzi»,
Xohi tunda, xoh kunduzi.
Qalbga payvand, o'q ildizi –
«Tong yulduzi»!

Sermazmun ham mag'zi to'liq,
Quyosh misol tafti iliq.
Har bir bola kutar intiq,
«Tong yulduzi»!

Maktab, litsey xabarlari,
Quchgan yutuq, zafarlari.
Yorqin ibrat har birlari,
«Tong yulduzi»!

Toshqin daryo kabi jo'shqin,
Solar qalbga Vatan ishqin.
O'rgatadi hayot mashqin,
«Tong yulduzi»!

Orzular qil, xayol surma,
O'qi do'stim, bo'sh o'tirma.
She'r, hikoya, boshqotirma,
«Tong yulduzi»!

Ziyrak, topqir, bilimdon o's,
Yovuzliklar yo'lini to's.
Senga hamroh, eng yaqin do'st,
«Tong yulduzi»!

2019-YIL UCHUN GAZETAMIZGA OBUNA BO'LISHGA SHOSHILING. VAQT JUDA-JUDA OZ QOLMOQDA!

Ha, darvoqe, «Tong yulduzi»ga
hududingizdagi Aloqa bo'limlarida
obuna bo'lishingiz mumkin.

Tel: (71) 244-63-08;
www.tongyulduzi.uz;
e-mail: info@tongyulduzi.uz;
telegram: t.me/tongyulduz



Samarqand viloyati,
Urgut tumanidagi
118-umumta'lim
maktabining 9-sinf
o'quvchisi Salohiddin
SAYFIYEV kitob
mutolaa qilishni, she'r
yozishni yoqtiradi.

6-bet



JAVOHIR – DUNYODAGI ENG YOSH GROSSMEYSTER

Kuni kecha Vengriya mamlakatidan ajoyib xushxabar oldik.
Budapesht shahrida bo'lib o'tgan «First Saturday GM» xalqaro
turnirida iqtidorli o'zbek shaxmatchisi Javohir Sindorov mu-
vaffaqiyatli ishtirok etib, yakunda uchinchi grossmeysterlik
talabini bajardi va 12 yoshida jahonning eng yosh xalqaro
grossmeysteriga aylandi.

(Davomi 7-betda)



3-bet

LOS-ANJELES MAKTABIDAGI ENG NAMUNALI O'ZBEK O'QUVCHISI

**Baxtni topib bo'lgunmu,
Mehnatsiz, orzu bilan?..**

Boshlang'ich sinf o'quvchisi bo'lganimizdayoq, ustozlar bizga Navoiy bobomizni tanitganlari esingizdami? Keyinchalik adabiyot darsida g'azal mulkinging sultoni qalamiga mansub ko'plab ruboiy va g'azallarni yod oldik.

NAVoiy Hikmati



Bugun talaba sifatida Alisher Navoiyning hayoti va ijodini o'qib o'rganishda davom etmoqdaman. Har safar qalbimda «Biz yoshlar bobomizga o'xshasak, qani edi», degan niyat tug'ilib, maqsadga aylanib boradi. Bu ulug' zot hayotiga oid o'qigan so'nggi hikoyatlarimdan biri esa tengdoshlarim-u uka-singillarimga ibrat bo'lishi, shubhasiz.

Bir kuni mavlono Alisher Navoiy mulozimlari bilan otda uzoq tog' sayridan qaytayotgan edi. Yo'l qabriston oralab o'tgani bois, u yerga yaqin qolganida bobomiz otdan tushib, boshlarini quyi solib, piyoda yuribdi. Hamrohlar ham shunday qilishibdi-yu, ammo bu holning sababini anglab yetishmabdi. Qabristondan o'tgach, Hazrat yana otga minganlaridagina savol berishibdi. Shunda Navoiy hazratlari shunday javob beribdi:

«Bu yerda xalqimizning jigargo'shalar, tabarruk padari buzrukvorlari mangu uyquga ketishgan. Ular yonidan ot choptirib, changitib o'tish insonlik sha'niga isnoddir. Buni bilmaslik esa tiriklikdagi o'liklikdir. Ota-bobolar xoki va xotirasini e'zozlamoq har bir kishining sharafli burchidir.»

Ana shu kabi rivoyat va hikoyatlarni yoki bobomiz asarlarini o'qiganim sari ulug' ajdodimiz o'zi o'rnak bo'lgan holda barchamizni odamiylikka, vatanparvarlikka chorlaganini his etaman.

**Kamola MIRZAYOROVA,
O'zDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti talabasi**

MAKTABDA BO'LDI SHOV-SHUV, AJOYIB BIR UCHRASHUV

Sarlavhani o'qib, odatdagidek biror maktabda shoir yoki yozuvchi bilan uchrashuv bo'lgandir-da, deb o'ylashga shoshilmang! Poytaxtimizning 234-umumta'lim maktabida tashkillashtirilgan tadbirga mahalla raisi, xalq artistidan tortib sport ustalarigacha taklif etildi.



Maqsad o'quvchilarni kelajakda ana shu mehmonlar kabi tanlagan kasbining ustasi sifatida ona Vatanga xizmat qilishga chorlashdan iborat.

O'quv dargohi rahbari Nasiba opa Nazarova davrani ochib bergach, suhbat qizigandan qizidi. Dastlab so'z mahalla raisi va faollariga berildi. Abduvali aka Umarjonov ta'kidlaganiday, mazkur ta'lim maskani joylashgan mahallada bolalar uchun ko'pgina sharoitlar yaratilgan ekan. Shu o'rinda o'quvchilardan yana takliflar so'raldi. Uchrashuvning ajoyibli shunda bo'ldiki, har bir mehmon o'z sohasidan kelib chiqib, o'quvchilarning fikr va mulohazalari bilan qiziqdi. Masalan, tumandagi bolalar va o'smirlar sport maktabidan kelgan murabbiylar bolajonlarning sportga bo'lgan qiziqishlari haqida so'radi va barchani u yerga taklif qildi.

So'ng, so'z navbati O'zbekiston xalq artisti Muqaddas Xoliqovaga berildi. Sevimli san'atkorimizning bolalik xotiralari va bugungi faoliyati o'quvchilarni befarq qoldirmadi. San'atkor opa kichik muxlislarga «Shunday bilim olib, namunali o'quvchiga aylaningki, ota-onangiz siz bilan doimo faxrlansin! Shu kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Malika opa Aripjonova va kutubxonachi Vasila opa Saidova tadbirning qiziqarli va taassurotlarga boy bo'lishi uchun bosh-qosh bo'ldi.

**Sayyora QODIROVA,
Nigora ABDUNAZAROVA**

AJOYIB SOVG'A

**Ona yurtim – jonim O'zbekistonim,
Ichra Qoraqalpog'im – jajji Vatanim.
Farzandingman, xalqim, gul kabi o'sganim –
Dildan sevganimdan sog'lom jon va tanim.**



Behruz Abdijalilov ijrosidagi ushbu she'r barchani to'lqinlantirib yubordi. Navbatma-navbat Q. Eshbo'sinova, M. Jumaniyozova, J. Abdimalikov kabi o'nlab o'quvchilarning she'r aytishlari davraga yanada zavq bag'ishladi. «Kelajakda kim bo'lmoqchisan?» savol-javob viktorinasi esa juda qiziqarli bo'ldi.

Jonajon maktabimizda o'tgan ushbu tadbirga, shuningdek, ko'plab mehmonlar tashrif buyurdi. Maroqli uchrashuvda qoraqalpog'istonlik o'qituvchi, shoir Jabbor Bergan (Shomurodov) hamda ijodkorlar Shuhrat Toyir, Anvar Mirzazoda o'zlarining ijod yo'li haqida so'zlab berdi. So'ng, kitoblariga dastxat yozib, yig'ilganlarga ulashdi. Maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Mirpo'lat Madiyrov esa ta'lim maskanidagi o'quvchilar bolalar gazeta va jurnallarini, Xudoyberdi To'xtaboyev, Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon kabi yozuvchilarning kitoblarini sevib o'qishlarini aytdi. O'qituvchi Sanjar Abdumalikov esa turli millat vakillarining farzandlari ta'lim olayotgan mazkur maktabdagi bugungi uchrashuv maroqli o'tganini ta'kidlab, ijodkorlarga o'quvchilar nomidan minnatdorchiilik bildirdi.

**Zoya ESHBOYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qo'ng'iro't tumanidagi
3-umumta'lim maktabi o'qituvchisi**



Poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi Yoshlar Ittifoqi faollari 118-umumta'lim maktabi 5-sinflari o'rtasida «Til qonunlari haftaligi» doirasida seminar-trening tashkillashtirishdi. Seminarda tuman Yoshlar Ittifoqi sardori Muhammad Majidov, siyosiy-huquqiy savodxonlik yo'nalishi sardori Jahongir Mahkamov hamda Press-klub sardori Sevarbek Elboyev o'quvchilar bilan qiziqarli mashg'ulotlar o'tkazishda faollik ko'rsatishdi.

MILLIY G'URURNING ILK KURTAKLARI

Til - muqaddas va mo'tabar ne'mat. U insoniyatni taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan kuch, tafakkur gulshanining darvozalarini ochgan sehrli kalitdir. Qadimdan xalqimiz o'zining ona tiliga yuksak hurmat va ehtirom bilan qaragan, e'zozlab, ardoqlagan. Uning betakrorligi-yu mukammalligidan faxrlangan.

Bu yil o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganiga 29 yil to'ldi. Qutlug' sana mamlakatimizning barcha go'shalarida keng nishonlandi.

O'tgan yili Yaponiyadan yurtimizga aynan o'zbek tilini o'rganish uchun kelgan yosh talaba yigit bilan suhbatlashgan edim. Mutaxassisligi matematik bo'lgan bu yosh olimning aytishicha, ilgari-dan madaniyati va tarixiga o'zgacha mehr qo'ygan olis o'lka - O'zbekistonga kelishga va bu yerda o'zbek tilini mukammal o'rganishni niyat qilgan ekan. Qarangki, u shu xalq, shu yurtning shonli tarixiga bo'lgan chuqur hurmati sabab, yarim yilda o'zbek tilini o'rganibdi. Men yapon yigiti bilan suhbatlashar ekanman, qarshimda xuddi o'zbek o'g'loni turganday edi, go'yo. Negaki, suhbatdoshim o'zbek tilida shunday ravon so'zlar ediki, hatto tilimizdagi eng murakkab so'zlarni ham qiynalmay talaffuz qilardi. O'sha onda Hazrat Navoiy, Lutfiy, Atoiy va Bobur kabi zabardast allomalarning qo'liga qalam tutqazib, ularni ilhomlantirgan, mehribon volidimizning tunlari aytgan allalari bilan jon qulog'imizga singgan ona

tilimizga ayrim «zamonaviy» insonlarning bee'tiborligi kishini ranjitadi.

Aziz yoshlar, bugun Sizlar ingliz, nemis, fransuz, xitoy, arab, turk va koreys kabi tillarni hech qanday qiyinchiliksiz o'rganayotganlaringizni ko'rib, ko'zimiz quv Naydi. Hatto yoshi katta insonlar ham o'quv markazlarida xorij tillarini o'rganishga bel bog'lagan.

Jahon adabiyotining mashhur namoyandalardan biri Chingiz Aytmatov ona tiliga shunday ta'rif bergan edi: «Ona tili! U haqda nihoyatda ko'p gapirilgan, lekin uning sirli mo'jzasini tasvirlab bo'lmaydi. Bolalikda shuurga singdirilgan ona tiligina insonda milliy g'ururning ilk kurtaklarini uyg'otishi mumkin».

Xulosa o'rinda O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning Milliy g'ururimizni ilk kurtaklarini o'zida mujassam etgan ushbu misralarini keltirib o'tishni joiz deb bildim:

Ona tilim, sen borsan, shaksiz, Bulbul kuyin she'rga solaman. Sen yo'qolgan kuning, shubhasiz, Men ham to'ti bo'lib qolaman.

Jamoliddin ABDULLAYEV

DILSHOD XATOSINI TUSHUNDI, AMMO...

Aziz tengdoshim! Biror ishga o'ylamay qo'l ursak, keyin attang qilishimizni yaxshi bilasiz. Ammo, ba'zan bu xatolarni takrorlayveramiz. Buning oldini olib, vaqtida xulosa chiqarishingiz uchun esa sinfdoshim Dilshodning bir odati haqida so'zlab bermoqchiman.

Hikoyam qahramoni a'lochi, odobli bola. Hech bir do'stidan yordamini ayamaydi. Ammo u kimyoviy ishlov berilgan oziq-ovqatlar va «Fast food» taomlarini ko'p iste'mol qiladi. Bu mahsulotlarni me'yordan ortiq tanovul qilmaslik haqida ustozlarimiz ko'p bora ta'kidlashgan. Ammo bu gaplarga u sira e'tibor bermasdi. Oqibatda, o'tgan hafta u to'rt kun o'qishga kelmadi. Keyin bilsak, Dilshod kasal bo'lib qolgan ekan. Aniqrug'i, oshqozoni og'rib, yotib qolibdi. Biroz davolangach, yana maktabga qatnay boshladi. Ammo u eski odatini davom ettiraverdi. Oradan hech qancha vaqt o'tmay esa Dilshodning virusli gepatit kasalligining «A» formasini orttirib olgani ma'lum

bo'ldi. Shundaygina u xatosini tushunib yetib, bu odatini tashladi va to'g'ri ovqatlanadigan bo'ldi.

Aziz tengdoshim, kelajakda katta ishlarni amalga oshirib, orzulariga yetishishimiz uchun har birimizga bilim, kuch-quvvat va sog'lik kerak bo'ladi. Shunday ekan, barchamiz salomatligimizni yo'qotmay, aksincha, jismonan baquvvat bo'lib ulg'ayishimiz dardkor. Bu borada esa hamisha kattalarning gaplariga quloq solishimiz kerak.

Zulfiya QOBILOVA, Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 193-umumta'lim maktabi o'quvchisi

DIREKTORGGA VA'DA BERDIK

Maktabimizda o'quvchilarning bilim olishi, sport bilan shug'ullanishiga alohida e'tibor beriladi.

Quvonarlisi, ko'plab maktabdoshlarim turli musobaqa-yu tanlovlarning respublika bosqichida faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda. Men ham o'quv dargohimiz nomini yurtimiz bo'ylab tanitish niyatidaman. Bu borada esa sevimli gazetam menga yaqindan ko'makchi bo'lsa, ajab emas!

Tunov kuni maktabimiz direktori bizga bu yil xalq ta'limi tizimidagi ijoiy o'zgarishlar haqida so'zlab berdi. Biz esa bunday sharoit va e'tibordan mamnun bo'ldik va ulardan unumli foydalanib, albatta, a'lo baholarga o'qishga va'da berdik.

Nurshoda BOBORAJABOVA, Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi 24-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

LOS-ANJELES MAKTABIDAGI ENG NAMUNALI O'ZBEK O'QUVCHISI

Aziz o'quvchilar! Chet davlatlarida tahsil olayotgan tengdoshlaringiz hayoti bilan tanishishni istaysizmi? Unday bo'lsa, AQSHning Los-Anjeles shahrida yashovchi Mirfozil Agzamovning so'zlariga quloq tuting.



– Men «New Horizon los-Anjeles school» maktabining 5-sinfida o'qiyman. Ta'lim maskanimiz juda zo'r. Sinfimizda nafaqat AQSH, balki Misr, Ispaniya va Bangladesh kabi davlatlardan kelgan bolalar tahsil olishadi. Ular bilan bir oila bo'lib ketganmiz.

O'qituvchim Ms.Lisa biz bilan xuddi do'stlardek munosabatda bo'ladi. Shuning uchun ham tushunmagan mavzularni bema'lol qayta so'rab olaveraman. Darslar juda qiziq o'tiladi. Masalan, yaqinda geografiya fanidan okeanga ekskursiyaga bordik. Sayohat davomida



Bu suratda biz «Yogurtland»ga borgan edik. U yerda yogurtlarning tayyorlanish jarayonini kuzatdik. Va mazali yogurtlardan tanovul qildik.



Bizning maktabda «Car show», «Mototsikl show»lar bo'lib o'tadi. Unda mashinalarning yangi model-lari bilan tanishish imkoniga ega bo'lamiz.

do'stlarim bilan sum jon-zotlarini o'z ko'zimiz bilan ko'rdik va bundan zavq oldik.

Chet tillaridan ingliz, arab tillarini puxta o'rganyapman. Yaqinda maktabimizda «Reading day» bo'lib o'tdi. Unda bolalar bilan o'qigan kitoblarni yuzasidan o'zaro fikr almashdik, hammaniz tunda gulxan atrofiga yig'ilib, suhbat qurdik.

– Oldiniga begona yurtda farzandim qanday ta'lim olar ekan, qiynalib qolmasmikin, deb xavotir olgan edim. Ammo ota-onalar majlisidan so'ng

o'qituvchining Mirfozil haqidagi iliq gaplarini eshitib, juda xursand bo'ldim. Ayniqsa, ustozining «Barcha o'quvchilarning ichida eng tarbiyalisi – o'zbek bolasi. O'zbeklar farzandiga juda yaxshi tarbiya berishadi, madaniyati ham o'zgacha. Qani endi hamma ota-onalar sizlardek bolalarini tarbiya qilsa edi», deganida, shu millat farzandi ekanimdan rosa faxrlanib ketdim, – deydi qahramonimizning onasi Nozima opa Agzamova.

Tengdoshingiz chet elda tahsil olayotgan bo'lsa-da, o'z ona yurtini unutgani yo'q. U kelajakda O'zbekistonga qaytib, olgan bilimlarini yurtimiz ravnaqi uchun sarflash niyatida.

N. ABDUNAZAROVA

*Jur'at kamarini bog'lasang har dam,
Mardlar ichra bo'lur sening noming ham.*

VATAN HIMOYASIGA BARHAMIZ MAS'ULMIZ

Har bir yigit uchun Vatanni himoya qilish sharafligini, g'urur hisoblanadi. Ajdodlarimizga havas qilib, ularga intilish esa yuksak fazilatdir.

Prezidentimiz Farmoniga asosan, Respublikamizdagi Harbiy akademik litseylarga «Temurbeklar maktabi» deya nom berilishi zahirida ham avlodlar qalbidagi bu ezgu orzuni, buyuk istakni ro'yoga chiqarishdek niyat mujassam.

«Vatan» xayriya jamoat fondi va «Nuroni» jamg'armasi hamda O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashi bilan hamkorlikda o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirda Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining axborot-informatsion hamda harbiy kafedralarning 150 dan ziyod talaba-yoshlari ishtirok etdi. Tadbiri «Vatan» xayriya jamoat fondi raisi o'rinbosari B. Shodiyeva ochib berdi. So'ng, so'zga chiqqan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati No'mon Akbarov O'zbekiston Respublikasi «Harbiy Doktrinasi to'g'risida»gi qonun bo'yicha o'z mulohazalarini bildirdi.



Faxriy harbiylar – polkovnik X. Xolboyev va Zangiota tumanida joylashgan harbiy qism komandir o'rinbosari Akmal Shergaziyevlar Vatan himoyasi faqatgina harbiy qismlarda xizmat qiladigan xodimlarninggina vazifasi emas, balki shu yurtida yashaydigan barchaning muqaddas burchi ekanligi, bu borada ko'proq mas'uliyat yoshlar zimmasiga tushishi haqida to'xtaldilar. Sharqshunos olim, Respublika «Nuroni» jamg'armasi huzuridagi «Faxriy ayollar guruhi» raisi o'rinbosari M.Yunusxo'jayeva hamda tarix fanlari doktori, professor, ta'lim maskanining «O'zbekiston tarixi» kafedrasini mudiri R. Xoliqovlarning yoshlarni tadbirkorlikka jalb etish, ularni ilm cho'qqilarini egallab, yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishlari va bu borada kitob bilan eng yaqin do'st bo'lishlari haqidagi fikrlari talabalarga juda manzur bo'ldi.

Guļehra KARIMOVA,
«Nuroni» jamg'armasi Respublika Boshqaruvi huzuridagi «Faxriy ijodkorlar» guruhi a'zosi

MUTOLAAGA MEHR

O'quvchi qalbidagi kitobga mehr uyg'otadigan maskan bu kutubxonadir. Bugungi kunda Axborot-resurs markazi deb yuritilayotgan bunday maskanlarda o'quvchi-yoshlar uchun zarur o'quv hamda badiiy adabiyotlar ham kitob holida, ham elektron shaklda muhayyo etilgan.

Kuni kecha Marg'ilon shahridagi 1-DIUMda shahar maktablaridagi 32 ta Axborot-resurs markazlari xodimlari ishtirokida «Kitobxonlik – ma'naviyat ko'zgusi» mavzusida davra suhbatini o'tkazildi.

– Kitob – inson ma'naviy olamini boyitib, dilidagi ezgu hislarini, fikr-u xayollarini, orzu-umidlarini yaxshilikka yo'naltiruvchi mash'alaga o'xshaydi, – deydi maktab Axborot-resurs markazi rahbari Gulnoza Norboyeva.

Respublika ma'naviyat targ'ibot markazi Marg'ilon shahar bo'limi rahbari Maryamxon Yo'ldosheva esa «Kitob turli zamon va makonlar sivilizatsiyasini bog'lovchi ko'pri» ekanini ta'kidladi.

Tadbirda o'quvchilar o'rtasida «Eng faol kitobxon o'quvchi», «Eng ko'p kitob o'qigan o'quvchi» ko'rik-tanlovlari o'tkazilib, g'oliblar yangi kitoblar bilan mukofotlandi.

Markaz xodimlari tashabbusi bilan «Maktab – kutubxona – oila – jamoat tashkilotlari» xayriya kitobxonlar marafoni tashkil etilib, maktab ARM kitob fondi yangi adabiyotlar bilan boyitildi.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Farg'ona viloyati

BEMINNAT TARBIYACHI

Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 219-umumta'lim maktabida ijodkor Shukrullo Abdullayev bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

Dastlab ijodkor o'quvchilar shoirning she'rlaridan ifodali yod aytib berishdi. San'atga ixlosmand qizlar esa o'zbek milliy raqslarini ijro etib, davraga yanada fayz bag'ishladi. Shundan so'ng so'z navbati shoirga berildi.

– Aziz bolajonlar, insonlarning fikrlash doirasini kengaytiruvchi, bilimiga bilim qo'shuvchi eng qimmatli ne'mat bu kitobdir, – deya so'z boshladi shoir. Keyin mehmon o'quvchilarni «Arxarlar yo'l boshchisi», «Kapalaklar vodiysi», «Chaqmoq va Quyosh» kabi kitoblari bilan yaqindan tanishtirdi. Ushbu kitoblarda muallif barchani ona tabiatga, jonivorlarga mehr ko'rsatishga, atrof-muhitni doimo ozoda saqlashga chaqiradi.

Uchrashuv davomida shoir o'quvchilarni qiziqtirgan barcha savollarga javob

berdi. Tadbirni tashkillashtirishdagi ko'magi uchun maktab kutubxonachisi Dilnoza Botirjonovaga o'z minnat-



dorchiligini ham bildirdi. Ushbu tadbir kitobxonlar safining kengayishiga katta bir turkib bo'ldi.

Manzura UBAYDULLAYEA

XARITALAR SO'ZLAGANDA...

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 63-umumta'lim maktabida «Geografiya bugungi kun tarixi, tarix esa o'tgan kunlar geografiasidir» shiori ostida tadbir bo'lib o'tdi.



Oliy toifali geografiya fani o'qituvchisi Ozoda Turdiyeva kechani ochiq deb e'lon qilgach, so'zni tuman xalq ta'limi bo'limi uslubchisi Hasan Jalolovga berdi. Mehmon o'quvchilarga dilidagi ezgu niyatlari, taklif va mulohazalarini aytib o'tdi. Shundan so'ng navbat O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Ashurali Jo'rayevga berildi. Ular esa:

– Bugun Siz kabi ayni kuchga to'lgan, bilimga chanqoq bolajonlar bilan uchrashib turganimdan xursandman. O'quvchi maktabga ilm olish uchun keldimi, u har bir fanni chuqur o'zlashtirmog'i, ustozlarining so'zlariga quloq tutmog'i lozim. Fanlarni bir-biridan ajratish to'g'ri emas. Inson qaysi kasbni tanlashidan qat'iy nazar hamma fandan xabardor bo'lishi kerak. Yoshlik – takrorlanmas va bebaho davr. Shunday ekan, bu paytda olgan bilimingiz mevasini kelajakda, albatta, ko'rasiz, – deya o'quvchilarga o'zining qimmatli maslahatlarini berdi.

Tadbirda tumanidagi umumta'lim maktablarining geografiya fani o'qituvchilari ham tashrif buyurdi va ular ham yig'ilganlarga o'z fikr-mulohazalarini bildirdi. O'quvchilar tomonidan esa «Xaritalar tilga kirganda», «Olamga sayohat» va «Boshqotirmalar» kabi badiiy chiqishlar namoyish etildi. Shuningdek, iqtidorli o'quvchilar tomonidan turli millat va elatlarning qo'shiq va raqslari ijro etildi. Qolaversa, jahon xalqlarining milliy urf-odatlarini, taomlari hamda bayroqlariga ta'rif berildi.

Yakunda «Eng faol guruh», «Eng hamjihat guruh», «Eng bilimdon guruh» yo'nalishlari bo'yicha g'oliblar aniqlanib, ularga maktab ma'muriyati tomonidan faxriy yorliqlar topshirildi.

Muzaffar AHMEDOV

Bolajonlar, sizlarga yurtimiz maktablarida tahsil olayotgan ilgga chanqoq tengdoshlaringizni tanishtirishda davom etamiz. Bu gal Navoiy viloyati, Navoiy shahrida joylashgan 4-davlat ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabining iqtidorli o'quvchilari va ular erishayotgan yutuqlar haqida hikoya qilamiz.

SUHROB «AQLLI QAFAS» IXTIRO QILDI

Xurshida opa Qalandarova rahbarlik qilayotgan ushbu ta'lim maskani 1979-yilda qurilgan bo'lib, rus, ingliz tili hamda matematika fanlariga ixtisoslashtirilgan.

Jumladan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi Nadejda Tillayeva «Tajribamning sehrli sirlari» ko'rik-tanlovida 1-o'rinni qo'lga kiritdi. O'zbek tili o'qituvchisi Gullola Usmonovanning ish

«Aqlli qafas»ni ixtiro qildi va uning taqdimotini o'tkazdi. 11-«A» sinf o'quvchisi Jasur Abdualimov esa joriy yil ingliz tili bo'yicha «Essay contest» Respublika tanlovida qatnashib, sovrindor bo'ldi. Shuningdek, u sportning taekvando turi bo'yicha Respublika miqyosida o'tkazilgan musobaqalarda faol ishtirok etdi. Jasur qora belbog' sohibi va bu yil sport ustasi nomzodini qo'lga kiritdi. 2-«M» sinf o'quvchisi E'zoza Bahronova badiiy gimnastika bo'yicha xalqaro musobaqalarda qatnashib, faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdi. 11-«B» sinf o'quvchisi Nadejda Razgulyayeva



Ta'lim maskanida harbiy vatanparvarlikka oid tadbirlar tez-tez o'tkazilib turiladi.

– Bilim maskanida barkamol avlodni tayjribasi viloyat miqyosida om-malashtirildi. oshirilmogda, – deydi Xurshida opa. – Ayni dam maktabda 1757 nafar o'quvchi tahsil oladi. Ta'lim maskanidagi fidoyi pedagoglar viloyat va respublika miqyosida o'tkazilayotgan ko'rik-tanlovlarda faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda.

esa bu yil rus tili fanidan bo'lib o'tgan fan olimpiadasida 1-o'rinni egalladi. Bundan ko'rinib turibdiki, maktabda bo'lg'usami sportchi, matematik hamda chet tili bilimdonlari tahsil olmoqda. Ishonamizki, kelgusida ushbu bilim dargohidan yurtimizga foydasi tegadigan iqtidorli yoshlar yetishib chiqadi.

Ozoda TURSUNBOYEVA

TIL – MILLAT QALBI

Men ona tili va adabiyot muallimi sifatida yosh avlodga bilim berish asnosida ularga o'zbek tilining go'zal va unmr boqiy ekanligini uqtirib boraman.



Mutafakkir bobomiz Abdulla Avloniyning «Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on oynayi hayoti til va adabiyotidir» degan so'zlarini dasturulamal sifatida qo'llayman. Yurtimizdagi o'quvchi-yoshlarning o'z ona tilida to'g'ri va ravon so'zlashi biz ustozlarga ham bog'liq ekanligi kunday ravshan. Shu bois, har bir mavzuni qiziqarli tarzda va turli misollar yordamida tushuntiraman. Har bir o'quvchim o'z ona tili bilan faxrlanishini istayman.

Aziz bolajonlar, e'tibor bersangiz, dunyodagi hamma ellar o'z ona tilini e'zozlaydi. Ajdodlarimiz ham doim tilimizga nisbatan yuksak hurmatda bo'lgan. Shu bois, bu katta merosni asrab-avaylashga, unga gard yuqtirmaslikka barchamiz mas'ulmiz.

Tilagim, bundan 29 yil avval Davlat tili maqomini olgan o'zbek tilining qadri asrlar osha yuksalaversin!

Barnoxon ASQAROVA,
Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi
5-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

Lesson 43

INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ

PAST SIMPLE AND PRESENT PERFECT

The main difference between the two tenses is that while the present perfect has a connection to the present the past simple does not.



The formation of present perfect

The formation of the past simple

S + have/has + the past participle of the verb.

S + verb + ed/irregular verb.

We usually use the present perfect when referring to things that starts in the past and have a connection to the present.

We use past simple when it refers to something that happened in the past and action has no connection to the present.

e.g: I have lost my wallet.

e.g: I wrote that letter.

In the present perfect the time is generally unspecified.

In the past simple the time is specified.

e.g: I have watched that movie many times.

e.g: I watched that movie yesterday.

Muhammadsharif FAYZULLAYEV

HAPPY TEST

No	Questions	A	B	C	D
1	... year is on the 1st of January.	new	happy	last	next
2	I like the ... of bell.	sound	hand	people	word
3 your book and turn the page 67.	take	took	begin	make
4	You should answer ... one.	only	way	again	even
5	I help my mother because my sister is very ...	little	try	more	another
6	My motherat the university.	works	becomes	has	makes
7	Do you ... about animals?	know	have	get	call
8	Students in my group come from different ...	places	years	America	hands

PHRASAL VERBS

- Try on – to put on an article of clothing to see if fits and how it looks.
- Give up – to stop to do something.
- Drop off – to fall asleep unexpectedly.
- Be off – to have gone bad.
- Look for – try to find.



Ma'mura G'ULOMOVA

BOSHIMDAGI SOYABONIM

Duogo'yim onam bo'lsa,
Meni suyib, quchib yursa.
U doim yonimda tursa,
Meni suysa, meni suysa.

Mehribonim onajonim,
Siz quvonchim, siz armonim.
Sizga atab she'rlar bitay,
Boshimdagi soyabonim.

Qani endi birga bo'lsam,
Duolarin olib yursam.
Yutuqlarim ko'rsa onam,
Nurga to'lib ketar xonam.

**Salohiddin SAYFIYEV,
Samarqand viloyati, Urgut tumanidagi
118-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi**

SHU JAJJI QIZALOQ – VATAN UMIDI

**Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi
246-umumta'lim maktabining 2-«G» sinf
o'quvchisi Ominaxon TURSUNOVAga**

Quyoshmas, asli nur sochgan olamga,
Shu beg'ubor kulgu, beg'ubor chiroy.
Jamalak sochlarin shamol har tongda,
O'rmoqni kunduzi orzu qilur Oy.

Shu jajji qizaloq – Vatan umidi,
Yo'llarida kutsin g'oyibona baxt.
Uning qaibi bilan yuksalar, illo,
Kelajak atalgan billur, tillo taxt.

Farog'at XUDOYQULOVA



**Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Barno MIRZAYEVA
hamisha yutuqlarim bilan qiziqadi.**

O'rik daraxtiga musicha in qurib bola ochganidan Halimjon xabardor edi. U bir kuni daraxt tagida yotgan nimjon musicha bolasiga ko'zi tushdi. Mitti jonivorni beozorgina qo'lga olib tepaga qaradi-yu, kechagi qattiq shamoldan unaning buzilganini angladi. Uchirma bo'lmagan palapon kaftida tipirchilar, daraxt shoxidan musicha jonsarak bolasiga qarardi.

Unga: «Bolangdan xavotir olma, u xavfsiz joyda», deya palaponni uyiga olib kirdi-da, buvisiga in yasamoqchi ekanligini aytdi.

– Savob ish bo'ladi, – quvvatladi Hamro xola.

Halimjonning kichkinaligidan ustachilikka zavqi baland edi. Rahmatli otasidan qolgan arra va tasha qo'lidan tushmaydi...

Ko'p o'tmay tayyor bo'lgan inni u daraxtning shamolpana joyiga o'rmatdi, buvisining yordami bilan palaponni uyaga olib chiqdi, suv, don qo'yishni ham unutmadi. Daraxt tepasida gir aylangan ona musicha mustahkam qurilgan «yangi uyi»ga – bolasining yoniga qo'ndi-yu, Halimjon bilan buvisi xotirjam bo'lishdi.

Halimjonning otasi yo'q, uzoq shaharga turmushga chiqib ketgan onasi esa o'zi bilan o'zi ovora. Buvisi kasalmand – havo aynisa, o'zini noxush sezib, tomirlarida og'riq his qiladi. Yomg'ir yog'ishi, tomlaridan chakka o'tishini o'ylab, yotib qoladi.

– Katta bo'lsam, mohir usta bo'laman, biz ham tomi tunukali uyda yashaymiz, mana ko'rasiz, – deydi Halimjon.

...Quyosh charaqlab nur sochar, qushlar sayrashi quloqqa chalinar, buvi-nabira havoza tagidagi so'rida choy ichib o'tirishardi. Sal nariga ikki musicha kelib qo'ndi-yu, Halimjon:

– Buvi, qarang, – dedi ko'zlari chaqnab.

– Musichalargami? – kulimsiradi Hamro xola.

Halimjon parvarishlagan palapon allaqachon uchirma bo'lgan. Endi balandlarga uchishga qodir, lekin uzoqqa ketgisi yo'q edi.

Hamro xola nabirasiga bir rivoyat aytdi:

«Luqmoni Hakim ikki bolasini olib, bemorlarni davolagani o'zga yurtga yo'l olibdi. So'qmoq. Havo issiq. Yo'lda jiyda daraxtini ko'rib, to'xtabdi. Daraxt yonida buloqcha bor ekan. Suvga non botirib, tushlik qilibdi.

Bir payt kichik o'g'ilning ko'zi jarlikdagi bir teshikka tushibdi. Bilishsa, u endigina bola ochgan musichaning uyasi ekan. O'g'il palaponlarni olib berishini dadasidan so'rabdi. «Mumkin emas. Jo'jalar nobud bo'ladi, onasi qarg'aydi», deb tushuntirmoqchi bo'libdi Luqmoni Hakim. Lekin bola tushunmay, xarxasha qilaveribdi. Qaytishda olib beraman, va'da beribdi ota. Bolalar ishonishibdi.

Luqmoni Hakim soyada dam olayotgan payt bolalar yashirincha borib, palaponlar chiqib ketmasligi uchun teshikni xas-xashak bilan to'sib qo'yibdilar.

Luqmoni Hakim begona yurtda ko'p kasallarni muolaja qilibdi. Qaytayotganlarida katta o'g'li musicha uyasi qilgan ishlarini aytib beribdi. Voh, deya bir qalqibdi Luqmoni Hakim, yugurib borib, xas-xashakni olib tashlabdi. Afsus, palaponlar qurib qolgan, ona musicha esa nima

hech kim yordam berolmabdi. Nafas olishi ham mushkullashib qolgan. «Luqmoni Hakimgina bir nima qilishi mumkin», deyishibdi vazirlar. «Lekin otangiz u va bolalarini zindonga tashlagan, o'lib qolmagan bo'lsa, hoziroq olib kelamiz».

Luqmoni Hakimning ikki bolasi qiyinchilikka dosh berolmay zindonda vafot etgan edi. O'zi bir ahvolda.

Uni olib kelishibdi. Hukmdor ovozi xirillab debdi:

– Darddan qutulsam, tilagingni bajaraman.

– Agarda aytganimni bajarsangiz, darddan xalos bo'lasiz. Bu dardning davosi faqat... o'g'lingizning issiq qoni, – debdi to'satdan Hakim.

– Nima? – angrayib qolibdi hukmdor. – O'lsam o'laman, bitta-yu bitta o'g'limni... Yo'q, bunga yo'l qo'ymayman.

Kundan kun hukmdorning ahvoli og'irlashibdi. Yana Luqmoni Hakimni olib kelishga majbur bo'libdilar. Bemor tildan qolgan edi.

– Nahotki, davo faqat – begunoh norasidaning qoni, xolos? – so'radi vazir.

– Muolajaning boshqa yo'li yo'qmi? Masalan, jarrohlik yo'li. Tig'...

– Hojati yo'q tig'ning, – deya vazirning so'zini bo'libdi Luqmoni Hakim. – Yaxshi, bolani olib keling, jallodni ham.

Shu payt kimdir pichirlabdi:

– Hakim o'ch olmoqchi. Sobiq hukmdorga bo'lgan alamin o'g'lidan olib, bolasini ko'z oldida o'dirmoqchi!

– Unaqa emas, – dedi Hakim.

Meni va farzandlarimni Xudoning o'zi jazoladi. Bizga qarg'ish tegdi. Sobiq hukmdorning hukmi bir bahona...

– Qarg'ish? Kimning qarg'ishi? – hamma hayron. – Qiziq, hamma duo qiladi-ku tabibni?!

– Keyin aytib beraman. Bolani keltiring, vaqt g'animat!

Aytganini qildilar.

– Bolaning ko'zini bog'lang, – buyurdi Hakim.

Shamshir ko'tarib jallod kirib keldi-yu, hukmdor bor ovozi bilan baqirib, shunday qattiq na'ra tortibdi, tomog'idagi suyak otilib ketganini sezmadiki.

– Qoyil, – dedi Halimjon ibratli rivoyatdan zavqlanib. – Aqlingizga, topgan chorangizga balli, Luqmoni Hakim!

– Musichangga qara, – dedi Hamro xola. – Bir nima deyapti senga qarab...

Shu payt eshik taqilladi. Halimjon yugurib borib, darchani ochdi.

– Uyingizni ta'mirlab beramiz. Mahallaga ajratilgan fond hisobidan.


Halimjon xushxabarni buvisiga yetkazgan edi, uning ko'zlari chaqnab ketdi.

– Nahotki...

ONA MUSICHANING DUOSI

(Hikoya)

Muhammad SHODIY



qilarini bilmay, teshik atrofiga sarson aylanardi. Uning qarg'ish va nolasini eshitganday bo'libdi Luqmoni Hakim. Ko'z oldi qorong'lashib: «Nima qilib qo'ydinglar?!» debdi jig'ibiyon bo'lib.

U ho'ng'rab yig'lab yuboribdi. Bolalar hayron: «O'sha qushchalarni debmi, ota?»

Luqmoni Hakim dedi: «Biz begunoh qushchalarga zulm qildik, endi jabrini ko'ramiz».

Ular o'z uylariga yetib kelganda, qorong'i tushgan edi. Bemahalda ikki navkar bostirib kiribdi: «Qayerlarda yuribsiz, Hakim? Shahar hukmdori betob, tabiqlarning qo'lidan hech nima kelmadi, tezda borishingiz kerak!»

Hakim bod kasaliga chalingan hukmdorni tekshirib, boshini sarak-sarak qilibdi.

– Achchiq bo'lsa-da, haqiqatni aytсам: muolaja qilish vaqti o'tibdi...

– Muolajani sen qilishing kerak edi, qayerlarda yuribsanz?!

Hukmdor Luqmoni Hakimni bolalari bilan qo'shib zindonga tashlashni buyuribdi.

Uch kundan keyin hukmdor vafot etibdi. O'rini o'g'li egallabdi. Oradan ancha vaqt o'tgach, ziyofat paytida qo'qqisdan uning tomog'iga suyak tiqilibdi. U o'zini har yonga urib najot so'radi. Biroq, unga

JAVOHIR – DUNYODAGI ENG YOSH GROSSMEYSTER



Kuni kecha yosh grossmeyster Javohir Sindorovga Toshkent shahar, Sergeli tumani, «Chorbog'» mahallasidagi 102-uydan 3 xonali kvartira sovg'a qilindi.

(Davomi. Boshi 1-betda)

Aziz o'quvchilar, agar gazeta-mizni muntazam kuzatib borayotgan bo'lsangiz, ushbu iqtidorli tengdoshingiz va u erishgan yutuqlarga bag'ishlab juda ko'p maqolalar e'lon qilganimizdan xabardorsiz, albatta. Hech o'ylab ko'rganmisiz, endigina 12 yoshga qadam qo'ygan, jusasi kichik, ammo g'ururi osmon qadar yuksak bu o'zbek o'g'loni bunday olamshumul g'alabalarni qanday qo'lga kiritdi ekan-a?! Nazarimda, hozir ko'pchiligingiz «Javohir iste'dodli bola. Uning iqtidorini esa ota-onasi o'z vaqti-da payqay olgan. Qolaversa, mamlakatimizda biz yoshlarning sport bilan shug'ullanishimiz, har tomonlama sog'lom va barkamol o'sib-ulg'ayishimiz uchun barcha sharoitlar muhayyo etilgan», deya o'ylayotgan bo'lsangiz, ajab emas. Ha, to'g'ri topdingiz, bu hayot-da inson biror muvaffaqiyatga erisharkan, eng avval, uning

zamirida mehribon ota-onalarning beqiyos xizmati yotadi. Yaqinlar e'tibori, g'amxo'rliqi tufayli murg'ak qalbdagi kurtak otayotgan beg'ubor orzular osmon qadar yuksaladi. Yosh avlod baland cho'qqilarni zabt etadi, u erishgan g'alabalar ona yurtini butun dunyoga tanitadi.

Tengdoshingiz Javohir, mana bir necha yildirki, sportning shaxmat turi bilan muntazam shug'ullanadi. U bugunga qadar Osiyo va jahon miqyosidagi juda ko'plab musobaqalarda O'zbekiston sharafini munosib himoya qildi. Uning g'alabalariga atab bir necha bor yurtimiz bayrog'i baland ko'tarilib, madhiyamiz yangradi.

E'tiborlisi, bundan rop-pa-rosa bir yil avval yosh atletimiz xalqaro shax-

mat ustasi unvoniga sazovor bo'lib, Prezidentimizning qimmatli sovg'alarini qo'lga kiritgandi. Javohir o'tgan qisqa vaqt davomida yana bir necha nufuzli turnirlarda qatnashib, o'ziga bildirilgan ishonchni to'la oqladi. Dastlab u joriy yil iyun oyida «Voronej open-2018» xalqaro musobaqasida birinchi, sentabr

oyida Turkiyada 20 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionatida ikkinchi grossmeysterlik talabini bajardi. Quvonarlisi, tengdoshingiz 12 yosh, 10 oy-u 8 kunda mazkur unvonni qo'lga kiritdi. Bu natija bilan u jahon shaxmat tarixida S. Koryakindan (12 yosh-u 7 oy) keyin ikkinchi, Osiyoda esa birinchi – eng yosh grossmeyster sifatida o'z nomini tarixga muhrladi.

Kuni kecha yosh sportchini Toshkent shahar hokimligi unutilmas sovg'a bilan taqdirladi. Javohir Sindorovga Toshkent shahri, Sergeli tumani, «Chorbog'» mahallasidagi 102-uydan 3 xonali kvartira tantanali ravishda topshirildi. Marosimda Prezidentning yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi Abdujabbor Abduvohidov va Toshkent shahar hokimi Jahongir Ortiqov ishtirok etdi.

– Har gal yirik musobaqalarda biror yutuqqa erishganimda, Prezidentimiz, albatta, sovg'a yuboradilar. Bu yuksak e'tibor meni yanada o'z ustimda mehnat qilishga undaydi. Nasib bo'lsa, kelajakda kattalar o'rtasida jahon chempioni bo'lib, menga bildirilgan ishonchlarni to'la oqlayman, – deydi Javohir.

Biz ham yosh grossmeysterini ushbu erishgan muvaffaqiyati bilan samimiy muborakbod etamiz.

Sa'dullo TURSUNOV



«KICHIK OLIMPIADA» YAKUNLANDI

Quvonarlisi, Buenos-Ayresda o'tgan bellashuvlarning so'nggi kumida -56 kg vazn toifasidagi o'zbekistonlik bokschi Abdumalik Xalakov delegatsiyamiz hisobiga navbatdagi oltin medalni qo'shib qo'ydi.

U hal qiluvchi jangda ukrainalik Maksim Xalinichevga qarshi ringga chiqdi va 5:0 hisobida g'alaba qozonib, shohsupaning eng yuqori pog'onasiga ko'tarildi. Sportchimiz sharafiga O'zbekiston bayrog'i ko'tarilib, yurtimiz madhiyasi yangradi. Bu bokschilarimiz uchun olimpiadadagi yagona oltin medal bo'ldi.

Shu tariqa, O'zbekiston terma jamoasining o'smirlar Olimpiadasidagi medallari soni 16 taga yetdi.

Sportchilarimiz 5 ta oltin, 4 ta kumush va 7 ta bronza medallari bilan umumjamoa hisobida 206 ta mamlakat orasida 13-o'rinni egalladi.

INTILGANGA TOLE YOR

Andijon viloyati, Shahrixon tumanidagi 25-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Iroda Akbarova ikki yil avval egniga karatechilarning kimanosini kiyganda, yaqin kelajakda katta muvaffaqiyatlarga erishaman, deb sira o'ylamagan edi.

Uning sportga bo'lgan qiziqishini sezgan maktabdagi ustoz Alijon Mamataliyev Irodaga karate bilan jiddiy shugullanish-

qatnay boshladi. Muntazam mashg'ulotlar o'z samarasini berib, Iroda dastlabki oylardayoq ilk muvaffaqiyatlarga erishdi.

Jumladan, 2016-yil karate bo'yicha bolalar va o'smirlar o'rtasida Andijon viloyati kubogi uchun o'tkazilgan bahsda 1-o'rinni egalladi. 2017-yil Uchqo'rg'onda o'tkazilgan «Xotira turniri»da esa 14–15 yoshlilar o'rtasida 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Eng quvonchlisi, shu yil Qirg'izistonning Issiqko'l shahrida o'tkazilgan xalqaro turnirda 3-o'rinni egallab, ustozlari ishonchini oqladi.

Yosh sportchi qiz hozirda karate ustasi Iqboljon Haydarov murabbiyligida qo'l jangi saboqlarini o'rganmoqda. Qolaversa, Toshkent shahrida o'tkaziladigan O'zbekiston kubogi musobaqalariga jiddiy tayyorlanmoqda. Biz Irodaga omad tilaymiz.

Muhabbat SHODMONOVA,
Andijon viloyati, Shahrixon tumanidagi
25-umumta'lim maktabi o'qituvchisi



ni maslahat berdi. Shu tariqa, u tuman BO'SM qoshidagi karate to'garagiga



SPORT HAFTALIGI

Jismoniy tarbiya va sport sohasini yanada rivojlantirish, yoshlarni ommaviy sportga jalb etish maqsadida joriy yil oktabrning birinchi haftasida mamlakatimiz barcha tuman va shaharlarida «Yoshlar ittifoqi kunlari» doirasida «Yoshlar sport haftaligi» bo'lib o'tdi.

Ushbu haftalik doirasida Nukus shahri, Taxiotosh, Qo'ng'iro't, Taxtakopir tumanlari namunaviy tuman va shahar sifatida tanlab olindi. Sport tadbirlarida 180 ta sport turlari bo'yicha 354 ming 920 nafar yoshlar ishtirok etdi.

Yakunda g'oliblar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Nurbek QIDIRALIYEV

NOQULAY SHAROITLARGA QARAMAY INSONLAR YASHOVCHI ENG CHEKKA

MOTO, TIBET

Bu yerda yashovchilar eng yaqin aholi punktiga yetib olishi uchun 80 kilometr ga yaqin tog'li hududni bosib o'tishiga to'g'ri keladi. Bunday noqulayliklarga qaramay, ushbu turmush tarzi deyarli 11 ming kishini qoniqtiradi.

5 MASKAN

UNDREDAL, SOGN-OG-FIYURANE, NORVEGIYA

Bu kichik shaharcha 1980-yillarda yuzaga kelgan. O'sha davrlardan buyon ko'p narsa o'zgarmagan, faqat zamonaviy sivilizatsiyaning ba'zi yutuqlari cho'l hududiga kirib kelgan. Shunday bo'lsa-da, bu yerda atigi 100 ga yaqin kishi istiqomat qiladi.



OYMYAKON, ROSSIYA

Bu yerda yoz qisqa muddat davom etadi va kun bo'yi harorat keskin o'zgarib turadi. Qishda esa termometr 50-60 daraja sovuqdan past ko'rsatkichga ishora qiladi. Norasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 1938-yilda qishloqdagi harorat minus 77,8 darajaga tushgan. Tashqi dunyodan uzilganlik u yerdagi 500 nafar kishini qo'rqitmaydi.

REYNE, LOFOTEN OROLLARI

Moskenyesyoy orolidagi Reyne nomli qishloqda bor yo'g'i 329 kishi yashaydi. Qishloqning kichik hududi Norvegiyaning eng ko'rkam maskanlari qatoridan joy olgan.

to'g'riroq bo'lardi. Tarixi XII asrga borib taqaluvchi ibodatxona 70 nafar ruhoniylar uchun uyga aylandi.

Internet manbalari asosida

Sherali TOSHNIYOZOV tayyorladi

Pazanda qizgal



«LECHO» SALATI


Mutaxassislarning aytishlaricha, inson salomatligiga pomidorning foydasi beqiyos ekan.

Shuning uchun sizlarga pomidorli salat tayyorlab, bankalarga yopib qo'yishingizni, u esa dasturxoningiz ko'rkiga-ko'rk qo'shishini istaymiz.

Kerakli masalliqlar:

6 kg pomidor, 1 kg qizil bulg'or qalampiri, 100 gr yog', 100 gr shakar, ta'bga ko'ra maydalanmagan qora murch, 5 dona maydalanmagan sarimsoqpiyoz, 1 bog' shivit.

Tayyorlanishi: 6 kg pomidor go'sht qiymalagichdan chiqariladi. So'ng, qozonga solib qovuriladi. Obdon qaynab, biroz quyuq holga kelgach, qizil bulg'or qalampiri, 100 gr dog'langan yog', 100 gr shakar, ta'bga ko'ra tuz, ozgina qora murch va 5 dona maydalanmagan sarimsoqpiyoz solinadi. Salat pishishidan 5 daqiqa oldin bir bog' shivitni to'g'rab solinadi. Salat quyuqroq holga kelgach, tayyor bo'lgan masalliqlarni avvaldan qizdirilgan bir litrlik bankalarga yopiladi.



FOYDALI MASLAHATLAR

TISHLARNI OQARTIRISH USULLARI

Bir tekis, yaltiroq tishlar samimiy tabassum bilan birga sizning muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatingizni oshirishi ham mumkin.

ENERGETIK ICHIMLIKNI ICHMANG

Tishlar qorayishining odatdagi sabablari (qahva, choy) ga qo'shimcha ravishda energetik ichimliklardan ham uzoqroq turing. Ular tarkibidagi kislotalar emallar uchun yomon oqibatlar olib kelishi mumkin.



TISH CHO'TKASINI ALMASHTIRING

Tish cho'tkasi uch oyda bir marta almashtirish mumkin. Bu usul to'g'ri oziq-ovqat mahsulotlarini tanlash kabi muhim ahamiyatga ega.

TILNI TOZALANG

Tilingiz o'zida bakteriyalarni to'playdi, bu esa oxir-oqibat tishlar emalining rangsizlanishiga olib kelishi mumkin. Tilni tozalashda yumshoq tish cho'tkasiidan foydalaning va har unishdan keyin cho'tkani yuvib tashlang. Bu bakteriyalarni tilingizga takroran surmaslik uchun ularni cho'tkadan olib tashlashga yordam beradi.

Nargiza ABDULLAYEVA tayyorladi

ISTE'MOL SODASIDAN FOYDALANMANG

Iste'mol sodasi - tishlarning eng qo'rqinchli dushmani hisoblanadi. Bu kimyoviy birikma yemirish xususiyatiga ega bo'lib, uni uzoq vaqt ishlatish natijasida tish emali yemirila boshlashi mumkin va bu tishlarning qorayishiga olib keladi.

BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!

OLTIN KUZ CHAYNVORD

1. Kuzda har yili qovun sayli.
2. Kuzning nomi, sinonimi.
3. Mevalar qay biri, «Sultoni - xushxo'ri».
4. Olmurot, nashvati, ne oti?
5. Salla, boshli, bo'lagi - o'rama barg ko'ylagi (Topishmoq).
6. «Dala malikasi» - Kulag'on erkasi.
7. O'simlik qismi.
8. Qushga nomdosh, shaftolidosh.
9. Qirqma dedi, qirqib yedim.
10. Tog'da o'sar xilma-xil, ko'ylaklari yam-yashil.
11. Sariq mevali, tariq shirali.
12. Sohobkor Musamhammedov yaratgan uzum navi.
13. Qishga tursin, deyilar, oshga qo'shib yeyilar.
14. Kosagul chanog'i, oq-yumshoq yonog'i.
15. «Astar» so'zining anogrammasi.
16. «Beshurug'», «Qo'ziboy» qarindoshi, tarvuzlarning ulkan boshi.
17. Dukkakli o'simlik, Vatani - osiyolik.
18. Qaddi bukri onasi, marjon-marjon bolasi.
19. Sabzavotning asili, «Ikkinchi non» hosili.

Anvar MIRZAZODA

Tong yulduzi

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir
Feruz A. ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAYATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Alisher SA'DULLAYEV,
Laziz TANGRIYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Nodira NAZAROVA
Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga bosmaxona mas'ul.
Manzili va bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz
Adadi - 25689
Buyurtma - V2582

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxda.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop etiladi.
Topshirish vaqti - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel./faks: (99871) 244-63-08